



## Farg'ona viloyatining muqaddas qadamjolari

Andijon davlat  
universiteti

talabasi Sa'dullayeva  
Shahrabo

Annotatsiya: Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida doimo muhim ro'l o'ynagan. Farg'ona viloyati to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy Xitoy salnomalarida eramizning II asr oxiridan boshlab keltiriladi. O'rta asrlarda esa u Movorannahrning yetakchi o'lkalaridan biri hisoblangan.

Kalit so'zlar: Farg'ona, Qo'qon xonligi, Marg'ilon matolari, Rishton kulolchiligi, tarixiy obidalar.

Farg'ona so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud bo'lib olimlar "Farg'ona" so'zining bundan 12 asr ilgari sug'd yozuvlarida "Parg'ana" "Prag'ana" shakllarda yozilganligini hamda hind-sanskrit tilida "kichik viloyat", fors tillarida "tog' orolig'idagi vodiy", "atrofi berk soylik" degan ma'nolarga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar. Farg'ona o'zining go'zal landshaftlari bilan mashhur bo'lgan olis shahar. "Chimen" kurorti Oliy tog' etaklaridagi shifobaxsh mineral buloqlarining manzarasi bilan mashhur bo'lgan Chimen qishlog'iga asoslangan. Farg'ona vodiysini, go'zal tabiati, yerosti boyliklari, xushhavo iqlimi tufayli Markaziy Osiyoning gavhari deb ataydilar. Atroflari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan vodiy g'arb tomondagina Sirdaryoga o'z darvozasini ochgan. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida har doim muhim rol o'ynagan. Alqissa, Farg'ona viloyati to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy xitoy salnomalarida eramizning 2-asr oxiridan boshlab keltiriladi, O'rta asrlarda esa u Movorannahrning yetkachi o'lkalaridan biri hisoblangan. XI asrda Marg'ilon, savdogarlar Buyuk ipak yo'li bo'ylab Misr, Yunoniston, Bog'dod, Xuroson va Qashqadaryoga olib ketgan ipak matolari bilan dong taratgan Farg'ona vohadagi eng yirik shahar bo'lgan. Bugun ham Marg'ilonni O'zbekistonning ipakchilik poytaxti, deb atash mumkin. Shahar hunarmandlari eski usulda bo'yalgan ipakdan xonaki atlas to'qib bozorga chiqaradilar. Farg'ona viloyati turli mamlakatlardan kelgan odamlarni go'zal tabiati, odamlarning mehmondo'stligi, ko'p asrlik milliy an'anaviy va tarixiy obidalari bilan o'ziga jalb qilmoqda. Tarixiy obidalar: Jomey arxitektura majmuasi, Qo'qon shahridagi, Muqimiy uy-muzeyi, Rishton tumanidagi Al-Roshidoni maqbarasi, Farg'ona shahridagi mahalliy tarix muzeyi, "Burhoniddin Marg'iloniy" arxitektura majmuasi. Bundan tashqari, O'zbekistonda Oqsuv va Ko'ksuv tog'lari orasida dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan Shohimardon kabi go'zal va noyob tabiiy joylar mavjud. Farg'ona shahri markaziy osiyodagi eng qadimiy yodgorliklardan biridir. Tarixi 1877- yildan boshlanadi. Shaharda diqqatga sazovor joylariga ko'p sonli bog' va bog'lar, 10-asrning buyuk astronomi Ahmad Farg'oniy haykali va mahalliy muzeyi kiradi. Farg'ona muzeyining fondida 80 mingdan ziyod eksponat mavjud. Ular arxiologik topilmalar, san'at va hunarmandchilik buyumlari,



mahalliy keramika kolleksiyalari, zargarlik buyumlari va kashtachilikdir. Farg'ona viloyatining 88km.g'arbida joylashgan Qo'qon shahri diqqatga sazovor joylari joylari bilan qiziqish uyg'otadi. 1871-yili 4 gektar maydonda qurilgan so'nggi hokimi Xudayorxon saroyi bizga qadimiy Qo'qoning buyukligini eslatib turadi. Dastlab, saroy majmuasi 7 ta binodan iborat edi undan faqat ikkitasi saqlanib qolgan. Saroyning jabhasi juda chiroyli, u juda rangli mozaika bilan bezatilgan. Saroyning ichki jihozlari g'isht, mazoika va yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan. Saroyning eng chiroyli xonasi – bu Xudayorxon taxti joylashgan xonadir. Bugungi kunda shahar tarixi va madaniyati haqida hikoya qiluvchi mahalliy tarix muzayi mavjud. Muzayda 30mingga yaqin eksponat mavjud. Qo'qon ipak matolari, shuningdek G'arbiy Yevropa, Rossiya va O'zbekiston ustalari tomonidan yaratilgan arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar va noyob litografik nashrlar bor. Bundan tashqari XIX asrning boshlaridagi Qo'qon xonlari qabri, XIX asr boshidagi Jome masjidi, Amir madrasasi va Norbotabiy madrasasi joylashgan. 1998-yildagi YUNESKO qarori bilan dunyoga mashhur o'rta asrlar olimi Ahmad Farg'oniyni 1200-yilligi keng nishonlanadi. 2000-yilda olim ilohiyotshunos va haqiqatgo'y Burxoniddin Marg'iloniyni 910-yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanalar o'tkazildi. Bugungi kunda Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng go'zal hududlaridan biri. Tabiati boy vohalar Farg'onani o'rab turadi. Sirdaryo, Qoradaryo va Norin daryolarining birlashuvi vodiyni shimoliy chegarasi bo'ylab oqadi. Daryolarning suvlaridan Farg'onaning yirik Shimoliy va Janubiy kanallari orqali 20-asr umumxalq qurilishda foydalanadilar. Vohalarda yirik shahar hisoblanmish Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Namangan joylashgan. Qishloqlarda katta yer maydonlari, ariqlar, paxtazorlar, bog'lar, qovun va uzumzorlar odamni e'tiborini tortadi. Yo'l bo'yida terak va chinorlar bo'y rostlaydi.[1]

**Marg'ilon.** Farg'ona vodiysining shaharlari to'g'risidagi ilk ma'lumotlar eramizgacha II-I asrlarga oid yozma yodgorliklarda tilga olinadi. Xitoy salnomalarida Da-Yuan davlatida (ya'ni Farg'onada) 70 ta katta va kichik shahar mavjud bo'lganligi qayd etilgan. Markaziy Osiyonong eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Marg'ilon Makedonyalik Aleksandr istelosini esga oladi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'ladiki, buyuk zobit Xo'janddan O'zganga yo'l oladi va so'ngra Marg'ilonni tark etadi. Qazish ishlari paytida ashyoviy qoldiqlar, shu jumladan maxsus bo'yoqlar bilan nafis gul solingan yuqori sifatli noyob sopol idish, shuningdek, toshdan yasalgan qo'lbola yanchish quroli, hovoncha, pardoz bo'yog'i- surma tayyorlash uchun atalgan vositalar, to'qish asbobi uchun toshlar, bino xarobalari, bir so'z bilan aytganda, majusiylilik (budparastlik) dinning alomatlari topilgan. Tabiiyki, bularning barchasi alohida e'tiborga loyiqdir, qazilmalar esa barcha barcha buyumlar mahoratli usta va hunarmandlar tomonidan yasalganligidan dalolat beradi. Marg'ilon to'g'risidagi yozma ma'lumotlar asosan X asrga oiddir. "Boburnoma" da Z.M. Bobur Marg'ilon Farg'onaning 8 ta shaharlaridan biri ekanligi qayd etadi; shaharning obodonligi haqida yozib, mevalarining, xususan anorning donai kalon, o'rikning subhoniylarining shirin ta'miga tan beradi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, shaharning 12 ta darvozasi bo'lgan. Tabiiy- geografik sharoitlarining maqbul ekanligi Marg'ilonning XI-XII





asrlarda Buyuk ipak yo'lining shimoliy va janubiy tarmoqlari o'tgan yirik shaharga aylanishiga sabab bo'lgan. Aynan shu davrdan butun islom dunyosi tan olgan fiqhshunos olim Burhoniddin al-Marg'iloniy yashab, ijod qilgan. Buyuk Temur va Temuriylar hukmronligi davrida ham Marg'ilon Farg'ona vodiysidagi yirik shaharlardan biri deb hisoblangan. Marg'ilon atlası –tabiiy shoyidan to'qilgan tengi yo'q matosi bilan butun olamga dong taratgan. Shahar aholisi qadimdan to'qimachilik hamda do'ppido'zlik bilan shug'illanib keladi, shu bilan birga hunarmandchilikning boshqa turlari, xususan, misgarlik, zargarlik ham keng tarqalgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab savdogarlar Bog'dod, Qashqar, Misr va Eronga turli matolarni olib chiqib, sotganlar. XIX-XX asrda Marg'ilon O'zbekistonning ipakchilik markaziga aylandi. Bugungi kunda Marg'ilonni O'zbekistonning ipak shahri deb atash mumkin. Qadimiy texnologiya va qo'l mehnati orqali mashhur atlaslar ishlab chiqarilmoqda. 2007-yilda Marg'ilonga 2000 yil to'ldi. [2]

Qo'qon- O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri. Farg'ona viloyati, So'x daryosi etaklarida joylashgan. Temiryo'l tarmog'iga ega. Aholisi – 230 ming kishi (2012-yil ma'lumotlariga ko'ra). Yengil (paxta tozalash, shoyi to'qish va boshqa), kimyo, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va metallga ishlov berish (to'qimachilik mashinasozligi, elektrtexnika sanoati va boshqa) rivojlangan. Pedagogika instituti, teatr, Hamza uy-muzeyi, o'lkashunoslik, adabiyot muzeylari bor. X asrdan ma'lum, 1740-1876-yillarda Qo'qon xonligi poytaxti. Shaharda XVIII-XIX asrlarga oid me'moriy yodgorliklar (Madrasai Mir, 1799-yil; Jome masjidi, 1816-yil; Modorixon maqbarasi, 1825-yil; Daxmai Shoxon ansanbili, Sohibzoda Miyon, Hazrat madrasasi, 1860-yil; Xudayorxon o'rdasi, 1873-yil) kabi diqqatga sazovor obektlar joylashgan. Shahar –qadimiy xalq amaliy san'ati markazi hamdir. Uzoq vaqt davomida Qo'qon shahri Farg'ona vodiysining asosiy shahri haqidagi dastlabki yozma manbalar 10-asrga tegishli yilnomalarda shahar Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi va u o'z qo'l san'ati bilan mashhur bo'lganligi qayd etilgan. XVIII-XIX asrlarda bu Qo'qon xonligining poytaxti bo'lib, u bugungi kunda O'zbekiston va qo'shni davlatlarning ko'pchiligini o'z hokimiyati ostida birlashtirgan. Qo'qon Katta diniy markaz hisoblangan. Shaharda o'ttiz besh madrasa va yuzta masjid bore di. Afsuski, ularning aksariyati zilzilalar va sovet hukumati tomonidan vayron qilingan. Qo'qonni 29 xon boshqargan, lekin ularning eng mashhurlari- so'nggi 1845-1876-yillarda hukmron bo'lgan Xudayorxon edi. U to'rt marta taxtga o'tirdi. 1868-yilda Xudayorxon o'zini rus imperatorining vassali deb tan oladi, sakkiz yildan so'ng u o'z do'stlari, to'rtta xotini va harami bilan birga Toshkentga keladi va Turkiston viloyatining general-gubernatoriga davlat pechativa hokimiyatning boshqa vazifalarini topshiradi. Shunday qilib, Qo'qon xonligi tarixi tugaydi. [3]

**Xudayorxon O'rdasi (saroyi)** XVIII asrdan e'tiboran, Qo'qon xonligining ko'plab masjid, madrasa, savdo rastalari, bozorlar, boshqa tarixiy obektlar bunyod etilgan. Ular orasida Xudayorxon tomonidan 1873-yilda qurilgan O'rda yaxshi saqlangan. Bu binoni “Xudayorxon saroyi” deb ham ataydilar. Saroyning umumiy maydoni - 4 gektar, uning poydevori 3 metr balandlikka ko'tarilgan. Shu sababli ham saroyga bosh darvoza orqali



kirish uchun sharqiy tomondan maxsus yo'l qurilgan. Darvozaxonaning ustki qismiga arab harflari bilan "Buyuk Sayid Muhammad Xudayorxon", deb yozib qo'yilgan. Saroy qurib bitkazilganida, unung uzunligi 138 metr, kengligi 65 metrni tashkil etgan edi. Saroy 7 ta hovli va 19 ta xona yetib kelgan xolos. Bugun bu yerda Qo'qon o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Sharqda, yangi hukmdor yangi pul deyiladi. Shuni aytish mumkinki yangi hukmdor – yangi saroy. Qo'qonning qo'zg'olon tarixida, bugungi kungacha omon qolgan Xudayorxon saroyi hukmdorining yettinchi qarorgohi edi va bunga faqat bir yarim asr bo'ladi.

**Modarixon maqbarasi** Modarixon maqbarasi 1825 yilda Qo'qon xoni Umarxonning validasi uchun qurilgan. Bu, islom me'morchiligining diqqatga sazovor, yorqin namunalaridan biridir. [4]

### Xulosa

O'lkamiz tarixidagi eng qadimiy va buyuk davlatlardan bo'lgan Farg'ona viloyati bugunga kunda O'zbekiston Respublikasining go'zal viloyatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa hozirda ushbu viloyatda ko'plab obodanchilik ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan Qo'qon shahridagi Hudayorxon o'rdasi qayta tiklandi, Farg'ona, milliy bog'i barpo etildi. Umuman Z.M. Bobur qadami tekkan tarixiy joylar va hatto qishloqlar ham obodonchilik ishlaridan chetda qolmadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [www.uzvikipedia.com](http://www.uzvikipedia.com)
2. [www.tourist.uz](http://www.tourist.uz)
3. [www.history](http://www.history)
4. [www.uzbekistan.uz](http://www.uzbekistan.uz)